




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

“XAMSA, EPOS, ROMAN: NAVOIY VA RABLE”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari

2026-yil, 23-aprel

Toshkent

“Firdavs-Shoh nashriyoti”

2026

Ozoda TOJIBOYEVA,

*PhD, dotsent
(ToshDO‘TAU, O‘zbekiston)*

OSHIQONA G‘AZALLARDA VAQT VA MAKON

Annotatsiya: Lirik asarlar o‘zining tasvirlash obyektiga ko‘ra epik asarlardan farqlanadi. Sharq adabiyotining yetakchi janri hisoblangan g‘azalda aksariyat voqealar lirik qahramon xayolida bo‘lib o‘tadi, aniq makon, zamon qayd etilmaydi. Ulardagi harakatlarning voqelanishi oshiqning holatini tushuntirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning voqeband g‘azallaridagi vaqt va oshiq qo‘nim topgan makon masalasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: lirik asar, g‘azal, lirik qahramon, voqea, vaqt, zamon, makon.

Abstract: Lyrical works differ from epic works in terms of their object of representation. In the Eastern literature, where the ghazal is regarded as a leading genre, most events unfold within the imagination of the lyrical persona, and specific spatial and temporal coordinates are not explicitly defined. The unfolding of actions in such works primarily serves to elucidate the emotional state of the lover. This article analyzes the issues of time and the spatial locus inhabited by the lover in the event-based ghazals of Alisher Navoiy.

Keywords: lyrical work, ghazal, lyrical persona, event, time, temporality, space.

Lirik asar o‘zining ko‘pgina xususiyatlariga ko‘ra epik asardan farqlanadi. Epik asar hayotni obyekt sifatida tasvirlasa, lirik asar esa insonning ichki olamini (subyektni) obyekt sifatida tasvir etishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Epik asarning voqelikni qamrab olish imkoniyati keng bo‘lib, kitobxonga harakatlar, faoliyat orqali ta’sir qiladi. Qahramonning ichki olami tasvir etilgan monologlar, kompozitsion vositalardan biri bo‘lgan lirik chekinish nasriy asardagi estetik ta’sirchanlikni oshirishi bilan uni lirik asarga yaqinlashtiradi. Biroq lirik asarda she’rning jozibadorligini ta’minlaydigan tashqi shakllar ham muhim o‘rin tutadiki, qofiya, radif, go‘zal ohang, siqiq va mazmunli tasvirlash usuli bilan kitobxon e’tiborini tezroq jalb etadi, ruhiy-hissiy ta’sir kuchining kuchliligi bilan xoslanadi.

Ma’lumki, romantik metodda yozilgan epik asarda bo‘lgani kabi lirik asarda aniq vaqt, makon qayd etilmaydi. Ayniqsa, bu qadim Sharq adabiyotidagi barcha asarlar uchun xos bo‘lib, ularni aniq vaqt o‘lchovi, qahramon harakatlanayotgan makon nuqtayi nazaridan tahlil qilish qiyin. Lirik janrlar sirasida yetakchi janr hisoblangan g‘azalda voqelikning berilishi mazmunga ko‘ra farqlanib keladi.

O‘zbek adabiyotida eng sermahsul ijod qilgan, g‘azal janrini mavzu va mazmun ko‘lamiga ko‘ra kengaytirgan, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy g‘azallari ayni masalaga yetarlicha obyekt bo‘la oladi.

Navoiy g‘azallarida aniq vaqt ko‘pincha hasbi hol turkumidagi g‘azallarida o‘zi bilan bog‘liq holatda ko‘rsatiladi va bunda real vaqt yuzaga chiqadi. Ya’ni shoir yoshi ulg‘ayib, umr o‘tib ketganini hayotiy xulosalari asosida pand-nasihat, afsuslanish ma’nolarida ifoda etadi. Jumladan, quyidagi baytda shoir yoshi ellikka yetgani, umrning o‘tkinchi ekanligini eslatadi:

Menki ellik yil chekib g‘am, topmadim xushvaqtliq,

Topqamenmu umrning emdiki o‘tmish xushrog‘i [Navodir ush-shabob, 428].

Baytdagi ikkinchi misrada shoir ellik yoshdan keyingi hayotdan endi xushvaqtlik kutish qanchalik to‘g‘ri, axir hayotning yaxshi damlari o‘tib ketdiku, deya ta’kidlaydi. Albatta, mazkur satrlarni majoziy ma’noda dunyoning o‘tkinchiligi, bebaqoligi, arzimasligi, insonga berilgan hamma narsalar aslida omonat ekanligi, foniyl dunyo uchun yugurib-yelish befoyda ekanligi ma’nosida ham tushunish mumkin. Hayotiy ma’noda Alisher Navoiyning bosib o‘tgan hayot yo‘li, shaxsiy hayotdagi yolg‘izligi, saroyda – el-yurt xizmati yo‘lida qilgan ishlari, odamiylilik izlab bezgani, atrofidagi odamlarning salbiy illatlari, yaqinlarining bir-bir hayotdan ko‘z yumgani va boshqa barcha Navoiyga aloqador voqealar sabab deb ham tasavvur qilishimiz mumkin. Har ikki baytdagi ikkinchi misrada esa ellik yoshdan keyingi hayotdan endi xushvaqtlik kutish qanchalik to‘g‘ri, axir hayotimning yaxshi damlari o‘tib ketdiku, deya ta’kidlaydi. Yoshlikning ortda qolishi, xazon yeli umrni kofuriy rang qish sari keksalik tomon uchirgani Navoiyning aksariyat asarlarida badiiy yo‘sinda ifoda etiladi. Insonga berilgan qisqa umrdaki, shuncha foydali, samarali natijaga erishgan Alisher Navoiyning-da o‘kingani, umr omonat, vaqtincha ekanligini, doimo undan oqilona foydalanish zarurligini yodga solib turadi. “Favoyid ul-kibar”dagi *“Ey ko‘ngul, tut go‘shaye emdi ibodat qilg‘ali, / Qolmoq istar bo‘lsang ellik yilg‘i bo‘lg‘an hurmatim”*, misralarida ellik yil hurmat-obro‘ orttirgan odamning bundan keyingi obro‘sini

saqlashi uchun ham ibodatga kirishi, imon-insofli, diyonatli bo'lishi eslatiladi. Qarilarning keksalikda qiladigan nojo'ya ishlariga ko'p bora urg'u beradi.

Navoiyo, o'tubon umr g'aflat ichra, darig',

Ki so'ng'i uyqug'a ko'z mayl etarda uyg'andim [Favoyid ul-kibar, 292].

Yuqoridagi g'azallarda real vaqt nazarda tutilgani g'azalning biografik mazmundagi hasbi hol g'azal ekanligidan kelib chiqadi. Mazmunan va kompozitsion tuzilishiga ko'ra farqlanib keluvchi qator g'azallarida bu holat jiddiy farqlanadi.

Ma'lumki, g'azallar kompozitsiyasiga ko'ra quyidagi turlarga ajraladi:

1. Mustaqil baytli g'azal. 2. Yakpora g'azal. 3. Voqeaband g'azal. 4. Musalsal g'azal. Ular sirasidan voqeaband g'azalda harakatlar mavjudligi, vaqt va makon nisbiy bo'lsa-da, syujetning berilishi e'tiborni tortadi. Voqeaband g'azallarda asosiy voqea oshiq va ma'shuq o'rtasida bo'lib o'tadi, aksariyat oshiqning harakatlari orqali yuzaga chiqadi. Chunki barcha g'azallarda yor oshiqqa beparvo, visoldan umid yo'q, yorga yetolmagan oshiqning azobli holatlari har xil yo'sinlarda ifoda etiladi. Mazmuniga ko'ra esa g'azalning barcha turida voqealar, harakatlar qisqaroq shaklda bo'lib o'tishi mumkin. Masalan, *yor yo'li itlari bilan yurish, vayronada boyqush bilan o'tirish, boshini otliq yor maydonida go'y (koptok) qilish, g'am tunida yolg'iz qolish* kabi va h.k.

Navoiy g'azallarida vaqt zamonsiz vaqtda namoyon bo'ladi. G'azalda makon esa asosan oshiqning ko'nglida, xayolida bo'lib o'tadi. Voqealar ro'y berayotgan maydon oshiqning ko'ngli, u butun iztiroblarni o'sha joyda o'tkazadi, taftish qiladi, xayolidagi orzu-umidlari, qayg'ulari o'sha makonda obrazlantiriladi. Butun boshli syujetlar oshiqning ko'ngil uyida bo'lib o'tadi. Chunki aksariyat hollarda u orzu qilgan visol amalga oshmaydi va xayolan tasavvur qiladi. Shunga ko'ra oshiqona g'azallarda jarayon voqelanayotgan makonni holatga ko'ra quyidagicha ajratish mumkin.

Yor yuradigan manzillar: *bog', gulzor, chamanzor, yo'l*.

Qayg'uda qolgan oshiqning makoni: *dasht, sahro, tog', vayrona, yor ot minib o'tadigan maydon, yor eshigi, majlis, bazm, g'am uyi, kulba, mayxona, xarobot, yor itlari yo'li, adam ko'yi*.

Vaqt o'lchovi esa ayriliq va visol onlarining orasigacha bo'lgan oraliqda o'lchanadi. Bunda vaqt o'lchovini bildirish uchun quyidagi so'zlar qo'llanadi: *chun, dame, ul zamonki, bir nafas, kun, tun, bir lahza, har dam, hamul dam, hargiz, bir dam*.

Ayriliq, hijron motivini bildiruvchi vaqtga doir so'zlar: *hajr tuni, qattiq kun, shom, g'am shomi, Nuh umri, yaldo tuni*.

Sog'inchni anglatuvchi so'zlar: *tong, visol tongi*.

Ular sirasidan hijron motivini hosil qiladigan lavhalarning ko'pligi oshiqona g'azallarning asosiy xususiyati bilan belgilanadi. Jumladan, ularda hijron, ayriliq, g'am tunining uzunligini ifodalash uchun sonlardan foydalaniladi:

G'amki yuz yillik rafiqimdur, netib men telbaga

Ko'rmayin ko'ksunda yuz ming dog'i hijron tanimas [Favoyid ul-kibar, 162].

Oshiq ayriliqda qolgan g'amli kunlarining uzunligini o'ta bo'rttirib, holatining ayanchli ekanligini ko'rsatish uchun yuz yildan buyon dardda ekanligini aytadi. Oshiqning yuz yillik dardlaridan ko'ksida yuz ming dog'lar paydo bo'lgan.

Yana ayrim g'azallarida vaqtni ifodalash uchun hayotda uzun vaqt, yoshni anglatuvchi obrazlardan ham foydalanadi:

Hajr yuz ming yilchayu ashkim urar gardung'a mavj,

Men ham o'ttum Nuhdin, bu ashk ham to'fonidin [Favoyid ul-kibar, 326].

Baytda oshiq hijron yuz ming yildek, ko'z yoshim esa osmonga qadar mavj urmoqda, yordan ayriliqdagi bu uzun hijron Nuh (a.s.) umridan o'tdi, o'sha yuz ming yildagi ko'z yoshlarim balandligi esa Nuhning to'fonidan ham baland bo'ldi deyiladi. Nuh payg'ambar badiiy adabiyotda uzoq umr ko'rgan payg'ambar sifatida an'anaviy obrazga aylanib ketgan. Uzun yillar, cheksiz vaqtni anglatish ma'nosida Nuh (a.s.) umri nisbat qilib olinadi. Xuddi shu ma'no yana bir g'azalida takrorlanadi:

Sirishkim yomg'uriyu shomi hijronimg'a rahm etkim,

Bu o'tti Nuhning umridin, ul bir o'tti to'fondin [Favoyid ul-kibar, 324].

Baytda ko'z yoshlarim yomg'iriyu hijronli tunlarda qolgan holatimga rahm etgin, ayriliqning uzunligi, visol uzoqligi Nuh (a.s.) umridan, ayriliqda to'kkan ko'z yoshlarim dungizi Nuh to'fonidan ham oshib o'tdi, deyiladi. Tasvirlarda mubolag'ali ifodalar qo'llangan, albatta bu vaqt aqlga sig'maydi. Mazkur har ikki bayt "Favoyid ul-kibar" dostonidan olingan bo'lib, mazmunan bir-biriga juda yaqin. Demak, shoir ayriliqdagi vaqt o'lchovini ko'rsatish uchun son va badiiy adabiyotga obraz sifatida ko'chib o'tgan Nuh umri va ko'z yoshiga nisbatan Nuh to'fonidan foydalanadi.

G'azallarda ayriliq tunining uzunligini bildirish uchun yaldo tuni ham qo'llanib kelinadi. Jumladan, ushbu g'azalda quyidagi ma'noda talqin qilingan:

Shomi hajrim toru bepoyonlig'in anglay desang,

Fahm o'lur yaldo tuni yanglig' soching har toridin [Badoye ul-vasat, 337].

Hajrim tunining tor va juda uzunligini anglay desang, yaldo tunidek uzun va ingichka soching torlaridan fahm qilib olishing mumkin. Ma'lumki, yaldo tuni deb dekabr oyidagi eng uzun kecha – 21-dekabr dan 22-dekabrgacha o'tar kechasi kuzatiladi. Yaldo tushunchasi mumtoz adabiyotga ayriliq tunining uzunligini anglatish uchun ramziy ma'noda qo'llanadi. Sochning qoraligi esa ayriliq tuni kechasining qoraligiga nisbat qilib olinadi. Sochning uzunligi o'sha tunning uzunligi. G'azalda hijron tuni soching toridek uzun va ingichka ma'nosida kechaning oshiq yuragiga beradigan nozik og'riqlari nazarda tutiladi. Yoki shoir yana bir musaddasidagi "Zulfungiz hayronimenkim, yilda bir yaldo bo'lur, Oyda kim ko'rdi iki yaldo tuni mundoq tavil?" misralarida bir yilda bir yaldo kechasi bo'ladi, yaldo tunidek uzun ayriliq kechasini kim oyda ikki marta ko'ribdi, kabi mazmunda qo'llaydi.

G'azallarda aksariyat vaqt oshiqning visol tongini kutishi, g'am tunida qolgani takror-takror tasvir etiladi. Oshiqona g'azallarda asosan yorga visoliga tashna, biroq yetolmagan, beparvo yordan ezilgan lirik qahramon – oshiq timsoli gavdalanadi.

Alloh-Alloh. bu ne so'z bo'lg'ay menu hijron tuni,

Vasl subhi qay qachan beyorlarg'a yor emish.

Hajr shomi shiddatidin ishq tarkin har kecha

Jazm etibmen, lek doim subh istig'for emish .

Baytning mazmuniga ko'ra, hijron tunida aytiladigan bu qanday so'z bo'lgayki, visol tongi qay payt, qachon yorsizlarga yor visoli nasib qilgan ekan. Hajr tunida iztirobidan ishqni tark etishga har kecha ahd qilaman, lekin tong otganda yana tavba qilib, ishqdan kechmayman, deyiladi. Demak, oshiqona g'azalda aniq tasvir etiladigan vaqt tun va tong. Aksariyat tun ayriliq ramzi, g'am tuni sifatida talqin etiladi.

Oshiqning hayotidagi tasvir etilayotgan voqealar ko'ngilda bo'lib o'tadi. Ko'ngil o'sha xayolotdagi harakatlar, tasavvurlar uchun epik makon vazifasini bajaradi. Aksariyat g'azallarda oshiqning makoni vayrona deb tasvir etilib, yordan ayriliqda qolgan qalb uyi vayronaga qiyos qilinadi. Jumladan, "G'aroyib ussig'ar"dagi 513-g'azalda vayrona ko'ngil makon sifatida quyidagicha tasvirlanadi. G'azalning baytlari mantiqan bog'langani uchun quyidagi baytni ham ko'rsatish o'rinli:

Xolingni tilab ruhum agar uchsa emas ayb,

Bu qushqa tahammul qani ul donadin ayru.

Xolingni ko'rib, agar ruhim uchsa, ayb emas, deydi shoir. Xol bu o'rinda qushning doniga o'xshatiladi. Xol go'zal yuzida, qush esa yuz va undagi xolni ko'rish ishtiyoqi bilan ovora, bezovta oshiq qalbi. Qushning kundalik rizqi don bilan bo'lganidek, oshiq ham yor yuzi-yu, undagi qora xolini ko'rmasa azoblanadi. Shunday ekan donidan ayrilib qolgan qushdek ozuqa manbasini izlayotgan oshiqning ahvolini tushunish mumkin.

Mehnat qushi ko'nglum uyidin chiqmasa tong yo'q,

Kim ko'rgan bor chug'zni vayronadin ayru.

Mehnat so'zi faoliyat, xatti-harakatni emas, tashvishda qolgan, azoblar po'rtanasida qolgan bezovta ruhni anglatadi. Demak, bu mehnat qushi ko'nglim uyidan chiqmasa tong otmaydi, ya'ni yorishmaydi. Ko'ngil uyiga bu bezovta ruh

tinchlik, xotirjamlik bermaydi, agar u uyni tark etmasa, qorong‘ulik, tun hukmronlik qilishda davom etadi. Boyqushning makoni vayrona, uni vayronadan boshqa joyda ko‘rgan bormi? Yuqori misradagi ifoda boyqushni eslatish bilan dalillangan. Boyqushga xaroba makon bo‘lganidek, ko‘ngil ham ishq azobidan vayrona holatga o‘tgan makonda yashaydi. Ruhning kechalari bedor boyqushga o‘xshatilishi haqiqiy ma’noda ko‘ngilni obrazli tasavvur etishga ko‘maklashadi.

Xulosa qilib aytganda, lirik asardagi vaqt va makon oshiqning holatini aniq tasvirlarda tasavvur etishga ko‘maklashadi. Lirik asarlardagi voelikni, lirik qahramonning makondagi harakatlarini ko‘ngil olami ichra tekshirish badiiy matnning ichiga chuqurroq kirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 3-жилд: Хазойин ул-маоний: Ғаройиб ус-сиғар. – Тошкент: Фан, 1988.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 6-жилд: Хазойин ул-маоний: Фавойид ул-кибар. – Тошкент: Фан, 1990.
3. Жўраев Ҳабибулло. Алишер Навоийнинг кексалик даври лирикаси. Филология фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 1993.
4. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – 356 б.
5. Жумаева София. Навоий ғазалларида вақт талқини // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008. № 3. – Б. 47-50.
6. Исҳоқов, Ё. 1983. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан.
7. Ҳайитметов, А. 2016. Навоий лирикаси. – Тошкент: O‘zbekiston.

Qoʻldosh Pardayev

NAVOIY MAHORATINING MUQIMIY IJODIY KAMOLOTIDAGI

OʻRNI.....249

Qahramon Toʻxsanov, Umriniso Toʻrayeva

ALISHER NAVOIY IJODINI OʻRGANISH MASALALARI..... 255

Фарруха Валиходжаева

ДИСКУРСИВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТВОРЧЕСТВА НАВОИ,

ПУШКИНА И ДЕЯТЕЛЕЙ ЗАПАДНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ..... 259

Shermuhammad Amanov

ALISHER NAVOIY ANʼANALARI AHMAD TABIBIY IJODIDA..... 265

Selenay Şahin

NURBAY JABBAROV'S NURBAY HOJA'S NOTEBOOK

AND THE POETIC UNIVERSE OF ALI SHIR NAVA'I 274

Orzigul Hamroyeva

QOʻQON VA XIVA ADABIY MUHITI TAZKIRALARINING

QIYOSIY TAHLILI..... 281

Махмадиёр Асадов

ФРАНЦИЯДА РАБЛЕШУНОСЛИК..... 292

Ozoda Tojiboyeva

OSHIQONA GʻAZALLARDA VAQT VA MAKON 307

Hafiza Aslanova

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MAVLONO

GADOIY SIYMOSI TAVSIFI 314

Norbibi Roʻzimurotova

ALISHER NAVOIYNING USTOZI ABDURAHMON JOMIYGA

MARSIYALARI 318

Абдурасул Эшонбобоев

КОНРАД Н.И “ЎРТА ШАРҚ УЙҒОНИШИ ВА АЛИШЕР НАВОИЙ” 322